

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 RAQAMLI ILMY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI**

**ULMASOVA DILDORAXON XIKMAT QIZI**

**EMOTSIONAL INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISHDA  
DINIY TA‘LIMNING ROLI**

**19.00.07 – Din psixologiyasi**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent-2024**

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
психологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in  
Psychological Sciences**

**Ulmasova Dildoraxon Hikmat qizi**

Emotsional intellektni rivojlantirishda diniy ta'limning roli.....3

**Улмасова Дилдорахон Хикмат кизи**

Роль религиозного образования в развитии эмоционального интеллекта....21

**Ulmasova Dildorakhon Khikmat kizi**

The role of religious education in developing of emotional intelligence.....39

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....44

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 RAQAMLI ILMY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI**

**ULMASOVA DILDORAXON XIKMAT QIZI**

**EMOTSIONAL INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISHDA  
DINIY TA‘LIMNING ROLI**

**19.00.07 – Din psixologiyasi**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent-2024**

**Falsafa doktori (doctor of Philosophy) disertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.PhD/P243 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.psi-ik.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar**

**Umarov Bahriddin Mengboyevich**  
psixologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Rasulova Ziyoda Abduboriyevna**  
psixologiya fanlari doktori, professor v.b.

**Shamsiyev O'ktam Baxriddinovich**  
psixologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar.57.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi Bir martalik ilmiy kengashning 2024-yil \_\_\_ dekabr soat \_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100011, Toshkent shahri, A.Qodiriy ko'chasi, 11-uy, Tel.: (+99871) 244-00-56, Faks: (+99871) 244-00-65, e-mail: info@iiu.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston xalqaro islom akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (168 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100011, Toshkent shahri, A.Qodiriy ko'chasi, 11-uy, Tel.: (+99871) 244 00 56).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil \_\_\_ noyabr kuni tarqatildi.  
(2024-yil 06-noyabrdagi 02-raqamli reyestr bayonnomasi).

**D.R. Maxsudov**

Bir martalik ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori, professor

**S.A. Rustamiy**

Bir martalik ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari doktori, professor

**Z.M. Islomov**

Bir martalik ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda yuz berayotgan g'oyalar kurashuvi, inson ongini manipulyatsiya qilishga qaratilgan urinishlar sabab shaxs emotsional intellektini oshirish, sog'lom ruhiyatga ega yoshlarni tarbiyalash masalasi yana ham dolzarb muammoga aylanib bormoqda. Global o'zgarishlar natijasida yuzaga kelayotgan yot g'oyalar asosida shakllangan fanatlik holatlari yoshlar ongi, e'tiqodi, barqaror ruhiy holatining muvozanati buzilishiga, hissiy noyetuk (*emotional immaturity*) shaxslarning shakllanishiga olib keladi. Shu jihatdan, integratsion sharoitda yoshlarda sog'lom tafakkur hamda psixologik salomatlikni uyg'unlashuviga ko'mak beruvchi emotsional intellekt (*emotional intelligence*)ni rivojlanishining ijtimoiy-psixologik (نفسية اجتماعية), diniy omillarini aniqlash hamda bunda xizmat qiluvchi ilmiy asosga ega usullarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida shaxsda emotsional intellekt shakllanishining shart-sharoitlari hamda ularning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur o'rganish, hissiy bilimdonlikni oshishiga xizmat qiluvchi diniy-psixologik omillarni aniqlashga e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, yoshlarni hissiy yetuk bo'lib voyaga yetishi, yot g'oyalar ta'sirda yuzaga keluvchi fanatlik holatlarini profilatika qilish, emotsional intellektni rivojlanishida ijtimoiy omillar sirasiga kiruvchi diniy ta'limning rolini tadqiq etish, dindor shaxs hissiy kompetentligining o'ziga xosligini o'lchovchi ijtimoiy-psixologik so'rovnomalar ishlab chiqish shu yo'nalishda olib borilayotgan tadqiqotlarni yangi sifat darajasiga olib ko'tarishni talab etadi.

O'zbekistonda olib borilayotgan yoshlar ta'lim tarbiyasi, ruhiy hamda jismoniy salomatligiga oid islohotlar yurtimiz kelajagi uchun yuqori intellektual salohiyatga ega, psixologik yetuk, sog'lom e'tiqod va tafakkur qilishga qodir bo'lgan yoshlarni tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, 2022-2026 yillardagi yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilab qo'yilgan "yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish, ma'naviy tarqkiyotni ta'minlash mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo'g'iniga aylantirish" kabilar fikrimizning dalilidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi PF-3907-son "Yoshlarni ma'naviy axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyuldagi 472-sonli Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarni oldini olish chora-tadbirlar to'g'risida", 2019-yil 12-iyuldagi 577-son "O'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini yana-da takomillashtirish to'g'risida" qaror-larida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion

g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jahon psixologiyasida emotsional intellektga oid yondashuvlar, diniy ta‘limning individ hissiy barqarorligiga ko‘rsatadigan o‘rni, shaxsda hissiy kompetentlik shakllanishida din omilining ta‘siri kabi masalalarda o‘ziga xos tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shunday tadqiqotlar qatoriga G‘arb olimlaridan Z.Freyd, K.Yung, E.From, E.Erikson kabi olimlarning psixoanalitik nazariyasi, Dj.Uotson, E.Torndayk, B.Skinning bixeviorizm yondashuvi, R.Solso, U.Nayser, E.Bern, A.Ellis kognitiv nazariyasi hamda U.Jeymsning<sup>1</sup> diniy his-tuyg‘ularga oid ilmiy tadqiqot ishlarini kiritish mumkin. Bundan tashqari ayrim manbalarda hissiy farovonlik, emotsiyalarni tog‘ri anglash hamda samarali boshqarish, diniy his tuyg‘ularning shaxsga ko‘rsatadigan ta‘siri, diniy ta‘limning individ xulq-atvoriga ta‘siri, hissiy barqarorligidagi o‘rni, nafs tarbiyasi borasida ham o‘ziga xos izlanishlar olib borilgan. Bunday ishlar turkunga Imom al-Buxoriy, Xo‘ja Abduxoliq G‘ijduvoni, Imom G‘azzoliy, Jaloliddin Rumiy, Muhammad Zohid Qutqu<sup>2</sup> kabi Sharq mutafakkirlarining islom ta‘limotida nafs tarbiyasi, hissiy tarbiya masalalariga oid qarashlari, G‘arb olimlaridan D.Goulmanning emotsional kompetentlikning ahamiyati, R.Bar-On q, Dj.Meyer, P.Selovey, D.Karuzoning “Qobiliyatlar” modeli, A.Karpov hissiy intellektning o‘ziga xos komponentlariga oid yondashuvlari, D.Lyusin, A.N.Andreevaning emotsional intellekt shakllanish omillari borasidagi fikrlari, F.Vasilyuk, Silbermon, Emmons, M.Badrining dinning shaxs kechinmalariga ko‘rsatadigan ta‘sirini aniqlashga qaratilgan masalardagi ilmiy izlanishlarni kiritish mumkin.

---

<sup>1</sup> Фрейд З. Введение в психоанализ / М.: АСТ, 2018. – С. 59; Юнг К. Г. Структура психики и процесс индивидуации/ - М.: Наука. - 1996. – С. 69; Erich Fromm. Ozodlikdan qochish. – Т.: Yangi asr avlodi, 2021. – В. 51; Юнг К. Введение в религиозно-психологическую проблематику алхимии // Архетип и символ. М., 1991. – С. 252; Эриксон Эрик. Детство и общество/ П.: 2019. – С 48; Э.Торндайк, Дж. Уотсон Бихевиоризм. М., 1998; Б.Скиннер. О бихевиоризме. / М.: Бомбора, 2023. – С. 223; Солсо Роберт Когнитивная психология/ П.: 2006. . – С.117; Д.Ушаков. Психология интеллекта и одаренности/ - М.: РАН. - 2011. – С. 81; У.Найсер. Познание и реальность. - М.: Директ медиа - 2008. – С. 67; Эрик Берн. Люди, которые играют в игры. - М.: Эксмо . – 2003. – С. 81; Эллис А. Гуманистическая психотерапия: рационально-эмоциональный подход / А. Эллис; пер. с англ. – СПб.: Изд-во «Сова», – М.: Изд-во ЭКСМО-Пресс, 2002. – С. 272; Уилям Джеймс. Воля к вере. – М.: Республика. - 1998. – С. 67; Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil Al-Buxoriy. Hadis. Al-Jomi’ As-Sahih. T.1. – Т.: Qomuslar bosh tahririyati.1991. – 560 b.; Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. «Ruhiy tarbiya» 1-juz «Poklanish». – Т.: «Hilol-Nashr» nashriyot-matbaasi, 2023. – 480 b.; Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi.

<sup>2</sup> Abu Homid G‘azzoliy. Riyozatun nafs (Nafs tarbiyasi) ). – Т.: Movaraunnahr, 2006. - 80 b; Abu Homid G‘azzoliy. Ihyou ulumid din. – Т.: Movaraunnahr, 2006. - В 10. Rumiy Jaloliddin. Ichingdagi ichindadir. – Т.: Yangi asr avlodi, 2003. – 199 b.; Muhammad Zohid Qutqu. Nafs nimadir. – Т.: Sharq, 2020. – 480 b.; Goleman, D. Emotional intelligence. – N.Y.: Bantam Books, 1995. – P. 56; Mayer J.D. Emotional intelligence: Theory, Findings, and Implications / J.D. Mayer, P. Salovey, D. Caruso // Psychological Inquiry. – 2004. – Vol. 15, № 3. – P. 197 – 215; Bar-On, R. Development of the Bar-On EQ-I: A measure of Emotional Intelligence/ R. Bar-On. – Paper presented at 105th Annual Convention of American Psychological Association, Chicago, 1997; Карпов, А.В. Проблема эмоционального интеллекта в парадигме современного метакогнитивизма / А.В. Карпов, А.С. Петровская // Вестн. интегративной психологии. – 2006. – Вып. 4. – С. 42 – 47. Люсин, Д.В. Современные представления об эмоциональном интеллекте / Д.В. Люсин // Социальный интеллект: Теория, измерение, исследования; под ред. Д.В. Люсина, Д.В. Ушакова. – М.: Ин-т психологии РАН, 2004. – С. 29-36; Андреева И.Н. Эмоциональный интеллект как феномен современной психологии. Новополюцк: ПГУ, 2011. – 387 с.; Васильюк Ф. Исповедь и психотерапия // Московский психотерапевтический журнал, 2004, №4. – С. 27-36; Silberman, I. (2005). Religion as a meaning system: Implications for the new millennium. Journal of Social Issues, 61(4), 641–663. Malik Badri. Contemplation. UK.: Cambridge press, 2000. – P. 21.

Mamlakatimiz olimlari Shayx Muhammad Sodiq Muhmmad Yusuf, N.Komilov, Shayx Nuriddin Xoliqnazar, psixologlar E.G‘oziev, G‘.B.Shoumarov, B.Umarov, X.Jabborov, Sh.Barotov, V.Karimova,, X.Alimov, N.Mullaboyeva tadqiqotlarida emotsional intellektning nazariy asoslari, turli emotsiyalarning shaxs ruhiy holatiga ta’siri, dinning shaxs hissiy holati orasidagi aloqadorligi masalalari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Diniy ta’limning shaxs hissiy holatiga ko‘rsatadigan tadqiqotlar turkumida olimlar A.Mo‘minov, U.Gafurovning ilmiy izlanishlari<sup>3</sup> diqqatga sazovardir. Qayd etilgan tadqiqotchilar ilmiy izlanishlarida aynan emotsional intellekt shakllanishi va rivojlanishida diniy ta’limning o‘rnini ijtimoiy-psixologik tahlilini emas, balki dinning shaxs hissiy barqarorligidagi roli, diniy ta’limning mohiyati, hissiyot hamda kechinmalarning o‘ziga xos jihatlarini tadqiq etgan. Mazkur tadqiqot ishida diniy ta’limning shaxs emotsional intellekti rivojlanishidagi ijtimoiy-psixologik jihatlarini o‘rganishga zarurat mavjud. Mazkur dissertatsiya ishi jamiyatda fanatizm, hissiy manipulyatsiyalar, diniy mutaassiblik bilan bog‘liq ayrim muammolarga ilmiy yechim bo‘lishi ehtimoldan holi emas. Yuqorida qayd etilgan barcha tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari mazmuni, tadqiqot ishimizning nazariy-metodologik asosi sifatida xizmat qilishi maqsad qilingan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasida 2012-2014 yillarda bajarilgan A-1-051 – “Islomshunoslik muammolarining birlamchi manbalar va ajdodlarimiz diniy-ma’rifiy merosini tizimli tahlil qilish asosida yosh avlodda sog‘lom e’tiqodni shakllantirish” mavzusidagi ilmiy loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** emotsional intellektni rivojlantirishda diniy ta’limning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

emotsional intellekt fenomeni yuzaga kelishiga asos bo‘lgan omillarni ko‘rsatib berish;

Sharq hamda G‘arb mutafakkirlarining emotsional intellektni rivojlantirishga qaratilgan diagnostik hamda korreksion usullaridagi tafovutlarni ajratish;

emotsional intellekt shakllanishiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash;

---

<sup>3</sup> Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. «Ruhiiy tarbiya» 1-juz «Poklanish». – T.: «Hilol-Nashr» nashriyot-matbaasi, 2023. – 480 b.; Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. – T.: Yozuvchi, 1996. – 272 b.; Shayx Nuriddin Xoliqnazar. – T.: Shamsiddin Boboxonov, 2023. – 480 b.; G‘oziyev E. Umumiy psixologiya. – T.: O‘zbekiston faylasuflar jamiyati, 2014. – 118 b.; Shoumarov G.A., & Arifxodjayeva L. (2021). Intellektida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ishlovchi psixolog faoliyatini tashkillashtirish. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 42-47; Jabborov X. O‘smirlarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik omillari. *Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi*. – Toshkent, 2019; Umarov B, Qodirov U. Huquqshunoslik faoliyati psixologiyasi. – T.:Yangi asr avlodi, 2005. – 45 b.; Barotov Sh.R., Muxtorov E.M. O‘smirlarda o‘z-o‘zini psixologik muhofaza qilish haqidagi tasavvurlarni shakllantirishning ilmiy-amaliy asoslari. *Monografiya*. – T.: “Fan” nashriyoti, 2008; Karimova V. Ijtimoiy psixologiya. – T.: Fan va texnologiyalar, 2012. 172 b.; Abdurahmonova Z. Yoshlarda milliy birlik tuyg‘usi shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: *Psixol. fan nom. dis.* – T.: 2006. – 129 b.; Alimov, X. J. Religious-psychological issues views of S Freud. *The Light of Islam*, 2019(2), – P. 9; Muminov A., Gafurov U., Shigabdinov R. *Islamic education in Soviet and post-Soviet Uzbekistan*. – GB.: Routledge, 2009. – P. 223-254.

diniy ta'limning shaxsning ruhiy holati, shaxslararo munosabati, xulq-atvoriga ko'rsatadigan ta'sirini asoslash;

diniy ta'lim muassasalarida tahsil oluvchi talabalarning emotsional intellektini o'ziga xos xususiyatlarini dalillash;

diniy ta'lim motivatsiyalari hamda ustanovkalarining shaxs hissiy barqarorligiga ta'sirini ko'rsatib berish;

emotsional intellekt rivojlantirishda din omilining ta'sirini ochib berish;

diniy ta'limning emotsional intellekt rivojlanishidagi ahamiyatini ijtimoiy-psixologik jabhalarini aniqlash;

diniy ta'lim imkoniyatlaridan foydalangan holda emotsional intellektni rivojlantirishga qaratilgan psixokorreksion dastur tuzish, tashkil etish, olingan natijalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan Toshkent islom instituti, Hadichai Kubro ayol-qizlar islom bilim yurti hamda O'zbekiston Milliy Universiteti 312 nafar talabasi.

**Tadqiqotning predmetini** talabalarda emotsional intellekti rivojlanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda kontent tahlil; N.Xolning "Emotsional intellektni baholash" testi; K.Leongardning "Shaxs aksentuatsiyasi" so'rovnomasi; D.V.Anatolyevich boshchiligidagi rus olimlari tomonidan ishlab chiqilgan hissiy barqarorlikni aniqlashga qaratilgan "SAN" metodikasi; Y.Sherbatixning "Diniy e'tiqod darajasini baholash testi"; muallif tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-psixologik so'rovnomadan foydalanildi. Shuningdek, ma'lumotlarni qayta ishlashning matematik-statistik metodlari (Spirmen korrelyatsiya koeffitsiyenti, Mann Uitni mezoni) qo'llanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Tasavvufdagi "Nazar bar qadam" (نظر بر قدم) rahshasida aks etgan solik har bir qadamni ehtiyotkorlik bilan bosishi, har bir so'z-amalini nazorat qilib turishi borasidagi qoida nizolarni konstruktiv usulda hal etgani bois shaxsda hissiy regulyatsiya (hissiyotlarni boshqara olish) ko'nikmasini takomillashtirishda korreksion usul sifatida foydalanish samara berishi dalillangan;

islom ta'limotidagi "umid va qo'rquv" (الخير والرجاء) aqidasi shaxsning hissiy barqarorligini saqlashga ko'mak bergani sababli talabalarda emotsional intellekt komponenti bo'lmish frustratsiyaga bardoshlilik (inson xohish va ehtiyojlarini qondira olmagan holatda hissiy barqarorlikni saqlab tura olishi) hamda adaptatsiya (yangi sharoitga oson moslashish) layoqatining ortishi isbotlangan;

diniy ta'lim muassasalarida talabalarida murakkab tizim sanaluvchi g'azab, hasad emotsiyalarini to'g'ri anglash hamda tartibga solish ko'nikmalarni mustahkamlashda mutaxassislik fanlarida foydalaniladigan o'quv materiallaridagi hislarni tushunish, samarali yo'naltirishga oid psixodiagnostik hamda psixokorreksion xarakterdagi oyat va hadislarning o'qitilishi ijobiy samara berishi aniqlangan: shaxsda ichki diniy yo'nalganlik (dindan najot va xotirjamlik izlash hamda dinni xulq-atvor jihatidan tushunish) sifatlarining shakllanganligi ichki lokus nazoratni barqarorlashtirishi hamda diniy-psixologik xususiyatlar (kechirimlilik, o'z-o'zini refleksiya qilish) kompetensiyalarini rivojlantirishi asoslangan;

shaxslararo munosabatlarga samarali kirishish, o'zi hamda o'zgalari emotsiyasini to'g'ri anglash hamda boshqara olish ko'nikmalarining hosil bo'lishida diniy ta'lim muassasalarida o'quv rejasidagi o'tiladigan mutaxassislik fanlari ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

talabalarda emotsional intellektni shakllanishi hamda rivojlanishiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik va diniy omillar psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi tizimi takomillashtirilgan. Emotsional intellektni rivojlantirish, hissiy savodxonlikni oshirish, empatiya qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan psixokorreksion dastur ishlab chiqilgan;

O'zbekiston milliy universiteti, Toshkent islom instituti, Hadichai Kubro ayol-qizlar islom bilim yurti talabalarining 2-bosqichida ta'lim oladigan 312 talabaning emotsional intellekti shakllanishiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillar aniqlangan;

yoshlarda emotsional intellektni rivojlantirish ishlari samaradorligini oshirish maqsadida talabalardagi emotsional kompetensiyalarni takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan;

tadqiqot natijasida emotsional intellekt yuqori bo'lishi shaxsda ichki diniy yo'nalganlik sifatlarining shakllanganligi ichki lokus nazoratni baqarorlashtirishi hamda diniy-psixologik xususiyatlar – kechirimlilik, o'z-o'zini refleksiya qilish kompetensiyalarini rivojlantirishi dalillangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqotda foydalanilgan psixodiagnostik metodikalarning psixometrik talablarga javob berishi, tadqiqot vazifalariga mos, o'zaro bir-birini to'ldiradigan tadqiqot metodlarining tanlangani, olingan empirik natijalarni qayta ishlashda matematik-statistik tahlil qilish usullaridan foydalanilganligi (Mann Uitni, korrelyatsion tahlil) va miqdoriy ko'rsatkichlarni psixologik talqin etishda ishonchlilik hamda muqarrarlikning statistik mezonlariga tayanilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bakalavr va magistratura ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlashga doir oliy ta'limning Davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqishda, "Din psixologiyasi", "Ijtimoiy psixologiya" fanidan o'quv qo'llanma hamda darsliklar yaratishda, diniy-ma'rifiy soha mutaxassislarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarida foydalanish bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati psixologlar, dinshunoslar va ijtimoiy soha vakillarining kasbiy faoliyatini takomillashtirish yuzasidan seminar-treninglar tashkil etishda, amaliyotchi psixologlar, pedagoglar faoliyatida hamda din psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya fanlari bo'yicha o'quv dastur hamda uslubiy qo'llanmalar yaratishga xizmat qilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Emotsional intellektni rivojlantirishda diniy ta'limning rolini o'rganish bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

"nazar bar qadam" (نظر بر قدم) rahshasida aks etgan solik har bir qadamni ehtiyotkorlik bilan bosishi, har bir so'z-amalini nazorat qilib turishi borasidagi qoida nizolarni konstruktiv usulda hal etishga ko'mak bergani bois shaxsda hissiy regulyatsiya (hissiyotlarni boshqara olish) ko'nikmasini takomillashtirishda

Korreksion usul sifatida foydalanish samara berishi aniqlangan. korreksion dasturni qo'llash orqali talabalarning emotsional intellektni rivojlantirishga erishilgan; (O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasining 2024-yil 8-avgustdagi 02-02/2333 sonli ma'lumotnomasi) Natijada, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi Malaka oshirish markazi va uning mintaqaviy filiallarida diniy-ma'rifiy soha xodimlari uchun tashkil etilgan malaka oshirish kurslari o'quv dasturlarini ishlab chiqishda istifoda etilgan;

islom ta'limotidagi "qo'rquv va umid" (الخوف والرجاء) aqidasi shaxsning hissiy barqarorligini saqlashga ko'mak bergani sababli talabalarda emotsional intellekt komponenti bo'lmish frustratsiyaga bardoshlilik (inson o'zining xohish va ehtiyojlarini qondira olmagan holatda hissiy barqarorlikni saqlab tura olishi) hamda adaptatsiya (yangi sharoitga oson moslashish) layoqatining ortishiga oid dissertatsiya natijalaridan O'zbekiston musulmonlar idorasi hamda Din ishlari bo'yicha qo'mita hamkorligida "Jaholatga qarshi ma'rifat" shiori ostida bo'lib o'tgan ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot tadbirlarida foydalanilgan. (O'zbekiston musulmonlar idorasi 2024-yil 9-avgustdagi 02-03/1920 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, mamlakatimiz aholisida stresga bardoshlilik ko'nikmalari rivojlantirilgan;

diniy ta'lim muassasalari talabalarida murakkab hissiyotlar sanaluvchi g'azab, hasad emotsiyalarini to'g'ri anglash hamda tartibga solish ko'nikmalarni mustahkamlashda mutaxassislik fanlarida foydalaniladigan o'quv materiallaridagi hislarni tushunish, samarali yo'naltirishga oid psixodiagnostik hamda psixokorreksion xarakterdagi oyat va hadislarning o'qitilishi ijobiy samara berishi aniqlangan: shaxsda ichki diniy yo'nalganlik (dindan najot va xotirjamlik izlash hamda dinni xulq-atvor jihatidan tushunish) sifatlarining shakllanganligi ichki lokus nazoratni baqrarorlashtirishi hamda diniy-psixologik xususiyatlar (kechirimlilik, o'z-o'zini refleksiya qilish) kompetensiyalarini rivojlantirishi borasidagi natijalar Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining psixologlarni qayta tayyorlash kurslari o'quv rejasidagi "Etnopsixologiya" va "Din psixologiyasi" moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining 2024-yil 13-iyul PM-164A sonli ma'lumotnomasi). Natijada psixologlarni malakasini oshirishga erishilgan, amaliy psixologik xizmat sifatini yangi darajaga olib chiqilgan;

shaxslararo munosabatlarga samarali kirishish, o'zi hamda o'zgalar emotsiyasini to'g'ri anglash hamda boshqara olish ko'nikmalarining hosil bo'lishida diniy ta'lim muassasalarida o'quv rejasidagi o'tiladigan mutaxassislik fanlarining ijobiy ta'sir ko'rsatishiga oid xulosalar mamlakatimizda yoshlarning turli yot g'oyalar ta'siriga tushib qolishining oldini olishga qaratilgan targ'ibot ishlarida keng foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligining 2024-yil 4-yanvardagi 2-13-21-14 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, yoshlarning sog'lom e'tiqod haqidagi tasavvuri kengaytirilib, radikalizmning shaxs hissiy barqarorligiga zarari haqida bilimlar berilgan.

**Tadqiqot natijalarining sinovdan o'tkazilishi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jurnallarda 15 ta ilmiy maqola, shulardan 1 tasi xorij nashrlarida, 7 ta OAK tasarrufidagi, 2 tasi mahalliy jurnallarda e'lon qilingan. Xalqaro va respublika miqyosidagi konferensiyalarda 5 ta tezis chop etilgan.

**Dissertatsiya tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 122 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olingan, tadqiqotning obyektlari va predmetlari aniqlangan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil qilingan. Ishning fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi ochib berilgan hamda ilmiy va amaliy ahamiyati bayon etilgan, natijalarning ishonchligi, dissertatsiya natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar hamda tadqiqot tuzilishi borasidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Emotsional intellekt muammosining ilmiy-metodik asoslari**" deb nomlanib, unda emotsional intellekt fenomenining ilmiy-metodologik va amaliy asoslarini o'rganishga oid yondashuvlar bayon etilgan. "*Emotsional intellektni tadqiq etishdagi o'ziga xos jihatlar*" deb nomlanuvchi birinchi bobning birinchi paragrafida antik davrdan to bugungi kungacha hissiyotlar, ularni to'g'ri anglash va tartibga solish, samarali boshqarish borasidagi faylasuflar, din ulamolari, psixologlarning qarashlari, o'ziga xos yondashuvlari o'zaro taqqoslanib tahlil etilgan. Psixologiyada emotsional intellekt fenomenining yuzaga kelish sabablari hamda zarurati yoritilgan.

"*Sharq va G'arb mutafakkirlarining emotsional intellekt borasidagi qarashlari*" deb ataluvchi birinchi bobning ikkinchi paragrafida hissiyotlarni tushunish, samarali boshqarish, hissiy kompetentlikni oshirish bo'yicha Sharq hamda G'arb mutafakkirlarining qarashlari o'zaro taqqoslangan, g'oyalar hamda yondashuvlar orasidagi tafovut hamda o'xshashliklar ilmiy tahlil etilgan. Emotsional intellektning muhim komponentlari sanalmish hissiyotlarni tushunish, o'zini anglash, shaxslararo munosabatlarga samarali kirishish, adaptatsiya kabi layoqatlarni rivojlantirishda ruhiy tarbiyaning rolini islom ulamolaridan Imom G'azzoliy, Ibn Qayyum al Javziyya, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy, Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, N.Komilov ko'rsatib berishga intilgan. Islomiy bilimlarda ruhning birlamchiligi, tanaga bog'liq bo'lmagan holda mavjudligi, u Alloh dargohidan inson tanasi(vujudi)ga vaqtinchalik kiritilishi ta'kidlanadi. So'fiy olim Imom G'azzoliy shaxsni hissiy tarbiya qilish orqali ta'limda yuqori natijalarga erishish mumkin degan g'oyani ilgari surgan. Olim hissiy madaniyat shaxs o'zini anglashidan boshlanishini ta'kidlagan. Ayni shunga o'xshash g'oya psixologiya atamasini G'arbda ommlashishiga hissa qo'shgan D.Goulman qarashlarida ham aks etgan. Amerikalik psixolog D.Goulmen shaxs o'zini anglashini emotsional intellektning birlamchi unsure sifatida e'tirof etgan.

Abu Homid G‘azzoliy “Ihyou ulumiddin” kitobida shaxs xulqini yaxshi tomonga o‘zgartirmoqchi bo‘lsa, avvalo o‘zining hislarini, o‘y-xayollarini o‘zgartirishi lozimligini ta’kidlaydi.<sup>4</sup> Olimning fikricha, o‘ylar, hislar hamda shaxs xususiyatlari o‘zaro bog‘langan degan g‘oyani ilgari surgan. Shuning uchun ham tarbiyada insonning qalbi sofligi muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlaydi. Abu Homid G‘azzoliy fikricha, inson ruhiyati, qarorlari, axloqi, shaxslararo munosabatlarining bari ichki dunyosi bilan bog‘liq. Ya’ni o‘z ichki olamini yaxshi anglagan shaxs boshqalarni his-tuyg‘ularini yaxshi tushunadi, shaxslararo munosabatlarga kirishishda kamroq qiyinchiliklarga duch keladi. Shunga hamohang qarash rus olimi D.Lyusinning emotsional intellektga oid yondashuvlarida ham o‘z aksini topadi. Olim emotsional intellektning mohiyati, tuzilishini ochib beruvchi o‘ziga xos konsepsiyani ishlab chiqqan. Emotsional intellektga o‘zi hamda o‘zgalar emotsiyasini tushunish hamda boshqara olish layoqati sifatida ta’rif bergan.

“*Emotsional intellekt muammosining psixologiyada o‘rganilish holati*” deb nomlanuvchi dissertatsiya birinchi bobining uchinchi paragrafida emotsional intellektning shakllanishi hamda rivojlanishini tadqiq etishga oid xorij olimlarining T.P.Berezovskaya, A.V.Libin, V.M.Rusalov, S.I.Dudin, A.Ellis<sup>5</sup>, X.Djeki, D.D.Guastello, S.Dj.Guastello, V.D.Shadrikova ilmiy izlanishlari tahlil etilgan. Hissiy kompetentlik, O‘zbek dinshunos olim va psixologlaridan Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, E.G‘oziev, B.Umarov, G‘.B.Shoumarov, X.Jabborovning emotsional intellektning nazariy asoslari, turli hislarning shaxs ruhiy holatiga ta’siriga oid yondashuvlari muhokama qilingan.

“**Diniy ta’limning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari**” deb nomlanuvchi dissertatsiyaning ikkinchi bobida diniy ta’limning ijtimoiy-psixologik mohiyati, uning shaxs kamolotiga ta’sirini tadqiq qilishga oid faylasuf, psixolog, dinshunos olimlarning ilmiy izlanishlari tahlili, tadqiqotda foydalanilgan metodikalar va ularning tavsifi hamda tadqiqotdan olingan natijalarning dastlabki tahlili amaliy jihatdan ko‘rsatib o‘tilgan.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafi “*Diniy ta’lim masalasining psixologiyada o‘rganilish holati*” deb nomlanib, unda diniy ta’limning shaxs hissiy holati, identifikatsiyasi, tafakkur tarzi hamda xulq-atvoriga ko‘rsatadigan ta’sirini tadqiq etgan psixolog hamda dinshunos olimlar qarashlari tahlil etilgan.

Diniy ta’limning psixologik aspektlari, uning shaxsga ko‘rsatadigan ta’siri dolzarb masala bo‘lib, XIX asrdan to bugungi kungacha turli psixologlar tomonidan o‘rganilgan. Shaxs taraqqiyoti bosqichlarini tadqiq qilgan olim Erik Erikson diniy ta’lim individ o‘zini anglashi hamda identifikatsiyasida yetakchi rol o‘ynaydi degan g‘oyani ilgari surgan. Jan Piaget esa bolada tafakkur qilish ko‘nikmalarining shakllanishida diniy ta’lim muhim o‘rin tutishini qayd etgan.

---

<sup>4</sup> Abu Homid G‘azzoliy. Ihyou ulumid din. – T.: Movaraunnahr, 2006. - B 10.

<sup>5</sup> Эллис, А. Гуманистическая психотерапия: рационально-эмоциональный подход / А. Эллис; пер. с англ. – СПб.: Сова, М.: ЭКСМО- Пресс, 2002. – 272 с.

Olim U.Gafurov O‘zbekistondagi diniy ta’limning yoshlarda yuzaga kelayotgan fanatizm holati bilan kurashishdagi bir vosita sifatida talqin qilgan.

“*Emperik tadqiqotning tashkil etilishi hamda foydalanilgan metodikalar tavsifi*” nomli disertatsiyaning ikkinchi bob ikkinchi paragrafida diniy ta’lim muassasalarida tahsil oluvchi talabalarning emotsional intellektidagi o‘ziga xoslikni aniqlashga qaratilgan emperik tadqiqotning tashkil etilish bosqichlari bayon qilingan. Ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma hamda metodikalari tahlili keltirilgan.


Emperik tadqiqot o‘tkazish uchun O‘zMUning xorijiy filologiya yo‘nalishi hamda Toshkent islom instituti hamda Hadichai Kubro ayol-qizlar islom bilim yurti talabalari tanlab olingan.

Tadqiqotni amalga oshirishda bir qator metodikalardan foydalanilgan. N.Xolning “Emotsional intellektni baholash” testi, K.Leongardning “Shaxs aksentuatsiyasi” so‘rovnomasi, D.V.Anatotlevich boshchiligidagi bir qator rus olimlari tomonidan ishlab chiqilgan hissiy barqarorlikni aniqlashga qaratilgan “SAN” metodikasi, Y.Sherbatixning “Diniy e’tiqod darajasini baholash testi”, ilmiy tadqiqotchi tomonidan tuzilgan dindor shaxs emotsional intellektining o‘ziga xos jihatlarini o‘rganish so‘rovnomasidan foydalanilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bob, uchinchi paragrafi “Diniy ta’limning shaxs hissiy barqarorligiga ta’sir qiluvchi aspektlari” deb nomlanib, unda tadqiqot ishi doirasida olingan emperik natijalar o‘z aksini topgan. Sinaluvchilarga N.Holning emotsional intellektni o‘lchash metodikasini har bir shkala bo‘yicha Mann Uitni mezoni asosida 2 guruh diniy ta’lim oluvchilar (Toshkent islom instituti, Hadichai Kubro ayol-qizlar islom bilim yurti - 1) hamda diniy ta’lim olmaydigan talabalar (O‘zbekiston Milliy Universiteti - 2) ko‘rsatkichlari o‘zaro taqqoslandi. Natijalar quyidagi diagrammada aks etgan:

**1-diagramma**

**N.Holl metodikasi bo‘yicha diniy ta’lim olayotgan hamda diniy ta’lim olmaydigan talabalar natijalari (Mann Uitning U mezoni bo‘yicha)**



Izoh: \* -  $p \leq 0,05$ ; \*\* -  $p \leq 0,01$ ; \*\*\* -  $p \leq 0,001$ .

**Diagrammada 1,2,3,4,5 bilan belgilangan raqamlar metodika shkalalari bo‘lib, ular quyidagicha tavsiflanadi:**

1. Emotsional bilimdonlik  $U=1686,5$   $p \leq 0,001$ .
2. O‘z emotsiyalarini boshqarish  $U=1280,5$   $p \leq 0,001$
3. O‘zini rag‘batlantirish  $U=1480,5$   $p \leq 0,001$
4. Empatiya  $U=1480,5$   $p \leq 0,001$
5. O‘zgalar emotsiyalarini tushunish  $U=1948$   $p \leq 0,001$

Olingan natijalarga ko‘ra diniy ta‘lim olayotgan talabalarning emotsional intellekt darajasi yuqoriroq ekanligi ma‘lum bo‘ldi. Bu esa ular ta‘lim o‘qiyotgan o‘quv rejadagi fanlar bilan bevosita bog‘liq. Xususan, diniy ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarga “Hadis”, “Islom tarixi”, “Fiqh”, “Tafsir” fanlari bo‘lib, bu fanlarda qayg‘u, jahl, hasad, uyat kabi emotsional holatlar bayoni hamda bu holatlarda nima qilishga oid diniy ko‘rsatmalar bayon etilgan. Shu kabi bilimlarni egallagan talabalarda hissiy kompetentlik yaxshiroq rivojlanishi ma‘lum bo‘ldi.

**1-jadval**

**Mann Uitni mezoni bo‘yicha SAN metodikasida sinaluvchilarning guruhlar bo‘yicha tafovuti**

Shkalalar	Guruhi	O‘rtacha qiymat	Mann Uitni mezoni	Ishonch darajasi
Faollik	diniy ta‘lim oluvchi talabalar	104,32	3885,5	,078
	diniy ta‘lim olmagan	90,16		
Kayfiyat	diniy ta‘lim olgan	115,61	2841,5	,000***
	diniy ta‘lim olmagan	81,00		
O‘zini his qilish	diniy ta‘lim olgan	116,46	3323,5	,001**
	diniy ta‘lim olmagan	80,31		

Metodikaning faollik shkalasi bo‘yicha guruhlar orasida sezilarli tafovut qayd etilmadi. “Kayfiyat” ( $U=2841,5$   $p \leq 0,001$ ) hamda “O‘zini his qilish” shkalalari ( $U=3323,5$   $p \leq 0,001$ ) bo‘yicha diniy ta‘lim muassasasida tahsil oluvchi talabalar yuqoriroq natija ko‘rsatdi. Ya‘ni diniy ta‘lim dargohlari talabalarida kayfiyatni boshqarish hamda o‘zini yaxshiroq his qila olish malakasi yuqoriroq ekani ma‘lum bo‘ldi.

**2-jadval**

**Mann Uitni mezoni asosida Y.Sherbatix testida guruhlar orasidagi tafovut**

Shkalalar	Guruhi	M	Mann Uitni mezoni	Ishonchlik darajasi
Dindan najot va xotirjamlik izlash	diniy ta‘lim olgan	118,22	2690,5	,000***
	diniy ta‘lim olmagan	78,88		
Dindorlikning tashqi belgilari	diniy ta‘lim olgan	103,49	3957	,110
	diniy ta‘lim olmagan	90,83		
Diniy ongning shakllanganligi	diniy ta‘lim olgan	122,76	2299,5	,000***
	diniy ta‘lim olmagan	75,19		
Dinni axloqiy xulq-atvor jihatidan tushunish	diniy ta‘lim olgan	112,49	3182,5	,000***
	diniy ta‘lim olmagan	83,52		
Dunyoni yaratuvchi buyuk kuchga ishonish	diniy ta‘lim olgan	127,12	1925	,001**
	diniy ta‘lim olmagan	71,66		

Guruhlar orasidagi tafovutlar o‘zaro taqqoslanganda, Dindan najot va xotirjamlik izlash ( $U=2690,5$   $p\leq 0,001$ ) hamda diniy ongning shakllanganligi ( $U=2299,5$   $p\leq 0,001$ ), Dinni axloqiy xulq-atvor jihatidan tushunish ( $U=3182,5$   $p\leq 0,001$ ), Dunyoni yaratuvchi buyuk kuchga ishonish ( $U=3957$   $p\leq 0,001$ ) shkalalari bo‘yicha diniy ta’lim muassasalari talabalarda bilan yuqoriroq ko‘rsatkich qayd etildi. Dindorlikning tashqi belgilari ( $U=3957$   $p\geq 0,001$ ) shkalasida guruhlar orasida tafovut kuzatilmadi. Guruhlar orasida tashqi dindorlik shkalasida farq mavjud emasligi, aksar talabalarda diniy amallarni bajarish, diniy ko‘rsatmalarga amal qilish qadriyat sifatida qabul qilinishdan dalolat beradi. Sinaluvchilar orasida dindan hissiy ehtiyojlarini qondirishga ko‘mak beruvchi taskin sifatida foydalana oladiganlar nisbati kamligi ma’lum bo‘ldi. Dindan hissiy ehtiyojlarini qondirish (qayg‘u emotsiyasini his qilayotgan paytida taskin ola bilish, og‘irroq holatlarda moslasha olish) malakasi diniy ta’lim oluvchi talabalarda yuqoriroq ekanligi ayon bo‘ldi.

Shaxsning emotsional intellekt va shaxs e’tiqodi, xulq-atvori, qadriyatlari orasida qanday bog‘liqlik borligini aniqlash maqsadida N.Xolning “Emotsional intellektni diagnostika qiluvchi” testi “o‘z emotsiyalarini boshqarish”, “o‘zini rag‘batlantirish” shkalalari tanlab olindi. Ajratib olingan shkalalar Y.Sherbatixning “Diniy e’tiqod darajasini baholash testi”dagi “Dindan najot va xotirjamlik izlash”, “Dindorlikning tashqi belgilari”, “Dinni axloqiy xulq-atvor jihatidan tushunish” shkalalari orasidagi korrelyatsion munosabat hisoblanganda quyidagi natijalar qayd etildi:

### 3-jadval

#### Emotsional intellekt hamda diniy e’tiqod so‘rovnomasi shkalalari orasidagi bog‘liqlik Spirmen korrelyatsiya koeffitsienti bo‘yicha


	O‘z emotsiyalarini boshqarish	O‘zini rag‘batlantirish	Dindan najot va xotirjamlik izlash	Dindorlikning tashqi belgilari	Dinni axloqiy xulq-atvor jihatidan tushunish
O‘z emotsiyalarini boshqarish	1	,670**	,351**	,108	,237**
O‘zini rag‘batlantirish		1	,315**	,145*	,124
Dindan najot va xotirjamlik izlash			1	,265**	,326**
Dindorlikning tashqi belgilari				1	,116
Dinni axloqiy xulq-atvor jihatidan tushunish					1

Izoh: \*\*  $p<0,01$  \*  $p<0,05$

Natijalar shuni ko'rsatadiki, "o'zini rag'batlantirish" hamda "dindan najot va xotirjamlik izlash" shkalalari orasida musbat ( $r=0,315$   $p<0,01$ ) aloqadorlik mavjudligi ma'lum bo'ldi. Ya'ni dinning kompensatorlik funksiyasi shaxsning stresga bardoshlilik darajasini oshirib, frustratsiya holatga tushganda, adaptatsiya qobiliyatini oshiradi. "O'z emotsiyalarini boshqarish" hamda "Dinni axloqiy xulq-atvor jihatidan tushunish" shkalalari orasida ham musbat ( $r=0,237$   $p<0,01$ ) bog'liqlik aniqlandi. Emotsiyalarni konstruktiv usulda boshqarish yoki boshqara olmaslik ham shaxsning xulq-atvorida aks etishi va hislarini to'g'ri tartibga solishi empirik jihatdan o'z isbotini topdi. Emotsiyalarini boshqara oladigan shaxslar esa diniy xulq-atvorga yaxshiroq amal qilishlari ma'lum bo'ldi. "Dindorlikning tashqi belgilari" hamda "Dinni axloqiy xulq-atvor jihatidan tushunish" shkalalari orasida ( $r=0,116$   $p>0,01$ ) aloqadorlik kuzatilmadi. Bu shaxsda tashqi dindorlik belgilar mavjud bo'lsa-da, xulq-atvorida diniy ko'rsatmalarga rioya qilmasligi mumkin degan xulosani berdi.

## 2-diagramma

**Dindor shaxs emotsional intellektining o'ziga xos xususiyatlari so'rovnomasidagi guruhlar orasidagi tafovut (Mann Uitni mezoni asosida)**



Ko'rsatkichlar diniy ta'lim oluvchi talabalarda "o'zini anglash" ( $U=2220$   $p<0,01$ ), "stressni boshqarish" ( $U=2590,5$   $p<0,01$ ), "kayfiyatni boshqarish" ( $U=1934$   $p<0,01$ ) shkalalari bo'yicha ijobiy tafovut borligini ko'rsatdi.

